

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

DEKABR, 2025



ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.com>

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**XI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, dekabr

TOSHKENT-2025

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
1-jild, 11-son (dekabr, 2025-yil). – 92 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 15-dekabr

Mas'ul muharrir:
Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Xalilov Oybek, Axadova Diёra

ТРАНСФОРМАЦИЯ МЕТРОЛОГИЧЕСКИХ СИСТЕМ И ИННОВАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ
УСИЛЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ МЕТРОЛОГИЧЕСКОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ 5-14

TARIX FANLARI

Narimov Asadbek

XIVA XONLIGINING XVIII–XIX ASRLARDAGI TASHQI SIYOSATI 15-17

IQTISODIYOT FANLAR

Murtazayev Isabek

SAMARQAND VA NAVOIY VILOYATLARINING MINTAQAVIY SALOHİYATI HAMDA TARMOQ
STRUKTURASINING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI 18-21

Pulatov Dilshod, Son Evgeniya

MEDIUM TERM BUDGETING AS A LINK BETWEEN WIDE FISCAL POLICY PURPOSES AND
BUDGETING 22-25

Маджитова Лолахон

ПЕРСПЕКТИВЫ ВЗАИМООТНОШЕНИЯ ТРАДИЦИОННЫХ ФИНАНСОВЫХ ИНСТИТУТОВ И
ФИНТЕХ-СТАРТАПОВ 26-30

FILOLOGIYA FANLARI

Ubbiniyazova Jamila

ЕПИК QAXRAMON TABIATINING DUALLIGI (QORAQALPOQ XALQ DOSTONI «ALPAMIS»
MISOLIDA) 31-34

Хакимова Дилдора

БИЛИНГВИЗМ В МНОГОЭТНИЧНЫХ РЕГИОНАХ УЗБЕКИСТАНА: САМАРКАНД–БУХАРА–
ТАШКЕНТ КАК СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ 35-38

Matmurodov Xojimurod

REY BREDBERINING MARSGA HUYUM ASARI BILVOSITA TARJIMASIDA RANG NOMLARINING
TAHLILI 39-42

Muzaffarov Javlon

JON TOLKIN IJODIDA GERMAN VA SKANDINAV EPOSI KUCHI VA TA'SIRI 43-46

YURIDIK FANLAR

G'ulommamatova Parvina

KRIPTO-AKTIVLAR ORQALI PUL YUVISHGA QARSHI KURASH: XALQARO HUQUQIY
MEXANIZMLAR 47-52

Normurodova Behro'za

IJTIMOY TARMOQLARDAN RAQAMLI DALIL TO'PLASHDA FOYDALANUVCHI HUQUQLARI VA
DAVLAT MANFAATLARI TO'QNASHUVI: XALQARO-HUQUQIY JIHATLAR 53-59

Караходжаева Окилахон

ОБЩАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ФОРМ ПАРЛАМЕНТСКОГО КОНТРОЛЯ 60-63

PEDAGOGIKA FANLARI

Haqiqatbekov Zafarbek

OLIY TA'LIM TIZIMIDA TALABALAR SOG'LIG'INI SAQLASHDA PSIXOLOGIK MASLAHAT VA
PEDAGOGIK TRENINGLARNING ROLI 64-68

Rustamova Shoxista

TALABALAR TADQIQOT KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA ONLAYN ILMIY
LOYIHALAR TAJRIBASI 69-73

Turaxodjayeva Zulxumor

RAQAMLI HIKOYACHILIK (DIGITAL STORYTELLING) ASOSIDA AXLOQIY TARBIYA: SINFDAN
TASHQARI FAOLIYATDA QO'LLASH 74-76

Butayev Norbek

ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA TALABALARNING MUHANDISLIK
KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH 77-80

Jonibekova Mehriniso

REFLECTIVE PRACTICE AS A WAY OF DEVELOPING THE PROFESSIONAL IDENTITY OF
TEACHERS 81-83

TIBBIYOT FANLARI

Нурмаматова Нугина

ОСОБЕННОСТИ РАННЕЙ ДИАГНОСТИКИ АФФЕКТИВНЫХ РАССТРОЙСТВ ПРИ
ДЕМЕНЦИИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ И КЛИНИЧЕСКИЙ ВЗГЛЯД 84-86

PSIXOLOGIYA FANLARI

Rahmatullayeva Mushtariy

IJODIY FIKRLASH VA AQLIY INTELLEKT MODELINING UMUMIY XUSUSIYATLARI 87-91

FILOLOGIYA FANLARI

EPIK QAXRAMON TABIATINING DUALLIGI (QORAQALPOQ XALQ DOSTONI «ALPAMIS» MISOLIDA)

Ubbiniyazova Jamila Turikmenbaevna

tayanch doktorant

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi

Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot instituti

Annotatsiya. Turkiy epos xalq og'zaki ijodiyotining katta qatlamini, jumladan dostonlar, miflar va afsonalarni o'z ichiga qamrab oladi, ularda turkey xalqlar tarixi, madaniyati va dunyoqarashi aks etgan. Maqolada qoraqalpoq xalq dostoni «Alpamis»da arxetip masalasi yoritiladi. Bunda qaxramon arxetipi «qaxramon sayoxati» universal modeli orqali ro'yobga chiqqan. Obrazda triksterlik jixatlarning mavjudligi uning murakkabligi va ko'pqirraligini ta'minlagan, shuningdek Alpamis tabiatining dualligini belgilaydi.

Kalit so'zlar: arxetip, doston, Alpamis, qaxramon, trikster, мотив, duallik, sacral olam.

THE DUALITY OF THE NATURE OF THE EPIC HERO (BASED ON THE KARAKALPAK FOLK EPIC "ALPAMYS")

Ubbiniyazova Jamila Turikmenbaevna

research doctoral student

Karakalpakstan Branch of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

Karakalpak Scientific Research Institute of Humanities

Annotation. The Turkic epic incorporates a vast body of oral folklore, including tales, myths, and legends, reflecting the history, culture, and worldview of the Turkic peoples. The article highlights the problem of the hero archetype in the Karakalpak epic "Alpamys". The hero archetype is embodied here through the universal model of the "hero's journey." The presence of trickster traits in the character provides its complexity and multifacetedness, and also determines the duality of Alpamys's nature.

Key words: archetype, epic, Alpamys, hero, trickster, motif, duality, sacred world.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ya-dif-y2025v1i11/n06>

Xalqning tarixiy xotirasi va manaviy-axloqiy qadriyatlarini o'zida mujassam etadigan epos ogzaki ijodiyotida alohida orin egallaydi. Xalqning o'tmishi haqidagi qahramonlik bayonda real voqealar miflik to'qima bilan qorishib ketadi. Mifologik obrazlar va syujetlar hayot manzarasini umumlashtirishga hamda qahramonlar jasoratini xudolar va g'ayritabiiy mavjudotlar olami bilan uyg'unlikda ifodalashga xizmat qiladi.

Xaosni yengish va tartibni o'rnatishga bo'lgan abadiy intilish mifologik va folkloriy tafakkurda sinovlarni engga oladigan, ma'naviy jihatdan qayta tug'ilgan bahodir, himoyachi qahramon arxetipi orqali ro'yobga chiqadi.

Arxetip masalasi ilk bor K.G.Yung tomonidan o'rganilgan. Yungga ko'ra, arxetiplar — bu tushlar, miflar, rivoyatlar va individual xayollarning umumiy mazmuni ramziyligini yuzaga keltiruvchi tug'ma psixik tuzilmalardir [6]. E.M.Meletinskiyning fikricha, arxetiplar – bu keng

ma'noda tushuniladigan adabiy tilning dastlabki asosini tashkil etgan obrazlar va syujetlarning ilk sxemalaridir» [1, b.10].

«Alpamis» eposi turkiy xalqlarning eng qadimiy va eng muhim asarlaridan biridir. J.Xoshniyazov ta'kidlaganidek, doston yaratish an'anasi san'atning bir turi sifatida qadim zamonlardan buyon turli xalqlarning madaniy va ma'naviy hayotida mavjuddir [3, b.140]. «Alpamis»ning qoraqalpoq versiyasi qadimiy arxaikaning ko'plab elementlarini o'zida saqlabdi, shu bilan birga qoraqalpoq xalqining dunyoqarashi va dunyoni idrok etishiga xos bo'lgan madaniy-etnik xususiyatlarni ham aks ettiradi. Mazkur eposda qahramon arxetipi J.Kembellning «qahramonning safarga o'tlanishi» (tug'ilish – sinov – o'lim – qayta tirilish) shaklidagi universal modeli [4] prizmasi orqali namoyon bo'ladi.

Qoraqalpoq adabiyotida qahramon tabiati dualligi masalasini o'rganish uchun biz «Alpamis» dostonining Qurbanbay *jirau* variantiga murojaat qilmoqchimiz.

Ma'lumki, epik qahramonlar ba'zan g'alati tuyiladigan xatti-harakatlar sodir etadi. Bunday xulq-atvor trikster arxetipiga xosdir. Trikster (inglizcha *trickster* aldoqchi, ayyor) – mifologiya, folklor va dindagi arxetip – «madaniy qahramonning hazilkash, quv xususiyatiga ega jinsifat-komik dublyori – xudo, ruh, odam yoki huquqbuzarlik xatti-harakat sodir etuvchi yoki, har qalay, xulq-atvorning umumiy qoidalariga bo'ysunmaydigan antropomorf hayvondir» [5].

E.M.Meletinskiyga ko'ra, «qahramon arxetipi boshidanoq antiqahramon arxetipi bilan o'ta bog'liq bo'lib, ko'pincha bitta obrazda qahramon bilan birlashadi. Qadimgi, aniqrog'i o'ta arxaik madaniy qahramonlarga ko'pincha ayyorlik hiylalar ham xos, deb yuritilgan, bunda hiylalar har doim ham ezgu yoki yaratuvchilik maqsadlarni kozlayvermaydi» [1, b.38].

B. Sengleyevning «Mazan botir obrazidagi trikster belgilari (qalmiq folklori materiali asosida)» maqolasi qalmiq tarixiy folklori va afsonaviy nasrining qahramoni Mazan botirning triksterona xatti-harakatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Qahramonning o'z ayyorligi va dushmanni chalg'itish qobiliyati orqali g'alaba qozonishi muallif tomonidan triksterga xos sifatlarning ro'yobga chiqishi sifatida talqin qilinadi, qahramon tomonidan eng ko'p qo'llanilgan hiylalar ko'rsatib beriladi hamda triksterona xulq-atvor namunalarining turli epik an'analarda uchraydigan epizodlar bilan o'xshashligi qayd etiladi [2, b.346].

Alpamisga ham trikster sifatlari yot emas. U ayyorlik va zukkolikdan quyidagi maqsadlarda foydalanadi: 1) dushman qarorgohiga tanilmasdan kirish; 2) bahodir sha'niga tajovuz qilishga yo'l qo'ymaslik; 3) ochdan o'lishning oldini olish; 4) ozodlikka chiqish; 5) hazillashish.

Agar B. Sengleyev Mazanning hiylalari hech qachon «o'ziniki»larga qarshi qaratilmaganligini, bu esa uning «himoyachi» va hattoki qalmiqlar «chempioni» sifatidagi jihatlari triksterlikdan ustun ekanini ko'rsatishini ta'kidlagan bo'lsa [2, b.346], Alpamisning o'z *qahinlig'i* (unashtirilgan qizi) haqidagi haqiqatni aytishga onasini majbur qilishi epizodida qahramonning hiylasi aynan o'z yaqiniga, ya'ni «o'ziniki»ga qarshi yo'naltirilgan.

Alpamisning tabiati dualdir, chunki:

1. Alpamisning otasi Baybori xudodan (hech bo'lmaganda) qiz so'rab niyat qiladi va kelajakda uni do'sti Baysarining (ehtimol) tug'ilajak o'g'liga uzatishni o'ylaydi. Ammo buning aksi bo'ladiki, Baybori o'g'illi (Alpamis) bo'ladi, Baysari esa qizga (Gulparshin) ota bo'ladi. Ya'ni, qizning orniga o'g'il tug'ilishining o'zida qandaydir duallik mavjud.

2. Hali tug'ilmasidanoq (ya'ni real olamga kelmay turib) va hatto bunyod bo'lmay turib Alpamisning jufti – uning o'zi bilan bir vaqtda tug'iladigan va keyinchalik sodiq rafiqasiga aylanadigan *qalirlig'i* (unashtirilgan qizi) bor.

3. *Qalirlig'ini* (unashtirilgan qizini) olib qaytish uchun amalga oshirilgan safarda Alpamis Qarajan bilan do'stlashadi. Keyinchalik esa Alpamis unga o'zining ayrim vazifalarina topshiradi va adolat uchun kurashda Qarajan o'z do'sti bilan teng harakat qiladi.

4. Alpamis zindonband etilgan paytda Ashim kal undan xabar olib turadi va uning maslaxatlariga binoan harakat qiladi. Shu tariqa Ashim kal qahramonning tirik qolishiga sababchi bo'ladi hamda uning ozodlikka chiqishiga ko'maklashadi. Ya'ni, Alpamis zindonda o'tirgan holda Ashim-kal orqali o'zi eydigan narsasini va qamoqdan chiqish yo'lini topishga muvaffaq bo'ladi.

5. Taxmin qilish mumkinki, Alpamisning bo'ynidagi xalqni ximoya qilish va ozod etish vazifasini uning o'gli Jadiger davom etadi, chunki botirning atrofidagi insonlardan faqatgina Jadiger Alpamisning kamonini torta oladi. Boshgqacha aytganda, Jadiger – bu yangi qiyofadagi Alpamisdur. Jadiger obrazi botirlik yo'lining vorisiyligini, ya'ni el-yurtni ximoya qilish vazifasining eski avlodidan yangisiga o'tishi tog'risidagi g'oyani o'zida aks ettiradi.

6. Alpamis oddiy inson kabi tasvirlangan bo'lsa ham, u ayni paytda go'yoki insoniy va sakral olam chegarasida turgandek tuyiladi. Chunki Alpamis boshqa, sakral olamdan kelgan (bolaning tug'ilishini Baybori xudoga niyat qilib oldindan aytgan), u zindonga tushgan va undan chiqishga muvaffaq bo'lgan (bu ramziy ma'noda qahramonning o'limi va qayta tirilishi bilan barobardir). Bu olamda Alpamisga pirlar (o'zga olam vakillari) hamrohlik qiladi va uni himoya qiladi. Zindonga tushsa ham u tashqi dunyo bilan aloqani yo'qotmaydi, vaqti-vaqti bilan Tayshaxanning cho'poni Ashim bilan boglanib turadi. Hatto Alpamis o'zi qo'lga o'rgatgan g'ozini orqali yaqinlariga (onasi, otasi va singlisi Qansuluwga) maktub yuborishga erishadi. Bu holat Alpamis obrazi orqali real, insoniy olam bilan sakral olamning o'zaro bog'liqligi ifodalangan, deb takidlashga imkoniyat yaratadi.

7. Alpamis notiqlik san'ati — ya'ni *sheshenlikka* ham ega bo'lib, hal qiluvchi vaziyatlarda u raqibiga o'zining notiqlik mahorati orqali ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, Alpamis osongina aldanib qoladi – u tili yog'li Mastan kampirga ishonib, asirga aylanadi.

8. Alpamis Tayshaxan yurtiga tomon ikki marta safarga o'tlanadi.

9. Yosh va kuchli yigit bo'laturib, Alpamis keksalik qiyofaga kiradi va yon-atrofidagilar qari, dimorsiz Qultayda baquvvat botirni ko'ra olmaydilar.

10. Boy-badavlat odamning o'g'li bo'lgan u ikki marotaba marginal holatiga tushib qoladi: avval zindonband qilinadi, so'ngra Qultay qiyofasida xorlik ko'radi.

11. Uning singlisi bor, bu Qansuluw – Alpamisning *ur'wi*, oilasiga mansub qizdir.

12. Alpamisni ikki qiz sevadi – bu Gulpashin va Arzayimdir. Ulardan birinchisi – otasining do'stining qizi bo'lsa, ikkinchisi – uning dushmani Tayshaxanning qizi.

Xullas, qoraqalpoq eposi «Alpamis» «safarga o'tlanish» (tug'ilish – sinov – o'lim – qayta tirilish) shaklidagi universal model asosida tuzilgan. Eposdagi qahramon arxetipi turkiy xalqlar epik an'analariga muvofiq tarzda, qoraqalpoq xalqining madaniy-etnik xususiyatlariga xos ro'yobga chiqadi. Qahramon obrazida triksterlik xususiyatlarining mavjudligi uning murakkabligini va ko'p qirraliligini kuchaytiradi hamda Alpamis tabiati dualligining asosini yaratadi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Мелетинский Е.М. О литературных архетипах. – Москва: РГГУ, 1994. – 136 с.
2. Сенглеев Б.Ю. Черты трикстера в образе Мазан батыра (на материале калмыцкого фольклора) // Studia Literarum. 2019, Том 4, №3. – 330-351 с.
3. Хошаниязов Ж. Влияние эпоса «Алпамыс» на формирование национальных эпических произведений (по материалам каракалпакского народного эпоса) // Вестник Челябинского государственного университета. 2012, №6 (260). Филология. Искусствоведение. Вып. 64., с.138-141.
4. Campbell J. The Hero with a Thousand Faces. - New York: Pantheon Books, 1949 / https://psv4.userapi.com/s/v1/d/C4t06w9NTtffaClij-KG6PKOcSiDlPnU_A1oGiWAHNgWQ2YBROEOsUne390SlR4NM2z3LYKqwbWoQ_YwFzZ-CmM9ilwjPfzOwohuPPzf1j8VbRxjXwzg/Tysyachelikiy_geroy_-_Dzhozef_Kempbell_3.pdf
5. <https://sinonim.org/sc/39750/4>
6. <http://www.zpu-journal.ru/e-zpu/2009/4/Sokolov/>

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, dekabr

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
X Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
1-jild, 11-son (dekabr, 2025-yil). – 92 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 15-dekabr

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.